

O‘ZBEKISTON SOLIQ STAVKALARI VA SOLIQ BAZASINING TAHLILI

Mirzayev Zakir Abdullayevich

Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o‘qituvchisi, PhD.

Mirzayev_z@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimida qo‘llaniladigan asosiy soliq stavkalari va soliq bazasining holati, dinamikasi hamda tuzilishi keng qamrovli tahlil qilinadi. 2018–2024-yillar davomida amalga oshirilgan soliq islohotlari natijasida QQS stavkasi 20%dan 12%ga, daromad solig‘i esa 13%dan 12%ga tushirilgan. Soliq bazasini kengaytirish, norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish va soliq yukini adolatli taqsimlash masalalari tadqiqotning markaziy mavzusi bo‘lib xizmat qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, soliq islohotlari soliq tushumlarini YaIMga nisbatan 22,4%dan 27,2%ga oshirishga hissa qo‘shgan, ammo norasmiy sektor muammosi hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Kalit so‘zlar: soliq stavkasi, soliq bazasi, QQS, foyda solig‘i, soliq islohoti, norasmiy iqtisodiyot, soliq yuki, O‘zbekiston.

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the status, dynamics, and composition of the key tax rates and the tax base within the tax system of the Republic of Uzbekistan. As a result of tax reforms implemented between 2018 and 2024, the VAT rate was reduced from 20% to 12%, while the income tax rate was lowered from 13% to 12%. The central theme of this research is the expansion of the tax base, the reduction of the informal economy, and the equitable distribution of the tax burden. The findings indicate that while tax reforms contributed to an increase in tax revenues from 22.4% to 27.2% of GDP, the issue of the informal sector remains a pressing concern.

Keywords: tax rate, tax base, VAT, profit tax, tax reform, shadow economy, tax burden, Uzbekistan.

KIRISH

Soliq stavkalari va soliq bazasi har qanday davlatning moliya-iqtisodiy siyosatida markaziy o‘rin tutadi. Ular davlat byudjetining asosiy daromad manbai bo‘libgina qolmay, balki iqtisodiy faollik, investitsiya muhiti va tadbirkorlik salohiyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar, jumladan

O‘zbekiston uchun maqbul soliq tizimini shakllantirish muammosi ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar doirasida soliq siyosati ham tubdan qayta ko‘rib chiqildi¹. Qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS), foyda solig‘i, daromad solig‘i va boshqa turdagi soliqlar bo‘yicha stavkalar bosqichma-bosqich pasaytirildi². Biroq, soliq bazasini kengaytirish va norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish masalalari hali ham yechimini kutayotgan muammolar qatorida turadi.

Tadqiqotning maqsadi: O‘zbekiston soliq tizimidagi stavkalar dinamikasini tahlil qilish, soliq bazasining hozirgi holatini baholash, xalqaro amaliyot bilan solishtirish va soliq siyosatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari: (1) soliq stavkalarining 2018–2024-yillar dinamikasini o‘rganish; (2) soliq bazasining tarkibiy tahlilini o‘tkazish; (3) xalqaro solishtirmali baholash amalga oshirish; (4) norasmiy iqtisodiyot va soliq bazasiga ta’sirini aniqlash.

Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi, Moliya vazirligi va Statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlariga, shuningdek xalqaro moliya tashkilotlari (IMF, World Bank) hisob-kitoblariga asoslanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI (LITERATURE REVIEW)

Soliq nazariyasi va amaliyotining asoslarini A. Smit o‘zining "Xalqlar boyligi" asarida to‘rtta tamoyil (adolatlilik, aniqlik, qulaylik va tejamkorlik) asosida belgilab bergan (Smith, 1776). Keyinchalik A. Pigou, A. Laffer va J. Stiglitz kabi iqtisodchilar soliq yuki va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur o‘rganishdi.

Laffer egri chizig‘i nazariyasiga ko‘ra, soliq stavkalarining ma’lum chegaradan oshirilishi soliq tushumlarining kamayishiga olib keladi, chunki soliq to‘lovchilarning iqtisodiy faoliyati pasayadi yoki ular soliqdan qochish yo‘llarini izlaydi (Laffer, 1974). Bu nazariya O‘zbekistonda amalga oshirilgan QQS stavkasini 20%dan 12%gacha pasaytirish islohotini ilmiy jihatdan asoslashda muhim o‘rin tutgan.³

MDH makonida soliq islohotlari bo‘yicha tadqiqotlarda Qozog‘iston, Rossiya va Belarus tajribasi ko‘proq o‘rganilgan (Lukyanenko, 2019; Dzhaksybekov, 2020). O‘zbekiston soliq tizimini tahlil qilishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar esa 2017-yildan keyin sezilarli darajada ko‘paydi (Yusupov, 2021; Karimova, 2022; Toshmatov, 2023).

Soliq bazasini kengaytirish masalasida Bird va Zolt (2005) norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish va soliq ma’muriyatini takomillashtirish zaruratini

¹ O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2020. – 512 b.

² Davlat Soliq Qo‘mitasi. Yillik hisobot 2023. – Toshkent: DSQ, 2024.

³ IMF. World Economic Outlook Database. – Washington D.C.: International Monetary Fund, 2024.

ta'kidlaydi. IMF (2022) hisobotiga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarda norasmiy iqtisodiyot ulushi o'rtacha 35–40%ni tashkil etadi va bu soliq bazasini sezilarli darajada toraytiradi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda soliq stavkalari va soliq bazasini kompleks tahlil qiluvchi, xalqaro solishtirmali baholashni o'z ichiga oluvchi tadqiqotlar hali yetarli darajada emas. Ushbu maqola ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

METODOLOGIYA (METHODS)

Tadqiqotda quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi: statistik tahlil, dinamik taqqoslash, tarkibiy-funksional tahlil va regressiya modellash. Ma'lumotlar 2018–2024-yillar davri uchun to'plangan va longitudinal tahlil usulida ko'rib chiqilgan.

Birlamchi ma'lumotlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasining yillik hisobot ma'lumotlari, Moliya vazirligi byudjet bajarilishi to'g'risidagi hisobotlari va O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining iqtisodiy ko'rsatkichlari to'plamlari ishlatildi. Ikkilamchi ma'lumotlar sifatida Jahon banki va XVF ma'lumotlar bazalari qo'llanildi.

Soliq stavkalarining ta'sirini baholashda quyidagi formuladan foydalanildi: $\text{Soliq yuki} = (\text{Soliq tushumlari} / \text{YaIM}) \times 100\%$. Soliq elastikligi ko'rsatkichi esa quyidagicha hisoblandi: $E = (\Delta T/T) / (\Delta Y/Y)$, bunda T – soliq tushumi, Y – YaIM. Norasmiy iqtisodiyot ulushini aniqlashda MIMIC (Multiple Indicators and Multiple Causes) modeli qo'llanildi.

Tadqiqotning asosiy cheklovi sifatida norasmiy iqtisodiyot bo'yicha rasmiy ma'lumotlarning to'liq emasligi va hisob-kitob metodlarining turlichaligi ko'rsatilishi lozim. Bundan tashqari, COVID-19 pandemiyasining 2020-yildagi ta'siri ba'zi ko'rsatkichlarda siqilishga sabab bo'lgan.

TAHLIL VA NATIJALAR (RESULTS)

O'tkazilgan tahlil natijasida O'zbekistonda asosiy soliq stavkalarining 2018-yildan 2024-yilgacha sezilarli o'zgarganligini aniqlandi. 1-jadvalda soliq stavkalarining yillik dinamikasi aks ettirilgan.

1-jadval.


O'zbekistonda asosiy soliq stavkalarining dinamikasi ⁴(2018–2024)

Soliq turi	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
QQS (%)	20	20	15	15	12	12	12
Foyda	15	15	15	15	15	15	15

⁴ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi va Davlat Soliq Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

solig'i (%)							
Daromad solig'i (%)	13	13	12	12	12	12	12
Ijtimoiy sug'urta (%)	25	25	24	24	23.5	23.5	23.5
Aksiz solig'i	Turli	Turli	Turli	Turli	Turli	Turli	

Jadval tahlilidan ko'rinib turibdiki, eng muhim o'zgarish QQS sohasida ro'y bergan: stavka 2020-yilda 5 foizga, 2022-yilda yana 3 foizga kamaytirilgan. Bu islohotning asosiy maqsadi tadbirkorlar uchun soliq yukini yengillashtirish va iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish edi.




1-rasm. O'zbekistonda soliq stavkalarining o'zgarishi⁵ (2018–2024)

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, QQS va ijtimoiy sug'urta badallari eng katta o'zgarishga uchragan stavkalar hisoblanadi. Foyda solig'i esa 2018-2024 davri mobaynida barqaror 15% darajasida saqlanib keldi. Bu esa yuridik shaxslar uchun soliq muhitining nisbiy barqarorligi sifatida baholanadi.

Soliq tushumlari tarkibini o'rganish uchun 2023-yil ma'lumotlaridan foydalanildi. 2-grafik soliq bazasining asosiy komponentlari bo'yicha taqsimotini ko'rsatadi.

⁵ Muallif tadqiqot asosida ishlab chiqildi

Soliq tushumlari tarkibi (2023-yil, %)



2-rasm. Soliq tushumlari tarkibi⁶ (2023-yil, %)

Tadqiqot tahlili shuni ko'rsatadiki, QQS umumiy soliq tushumi tarkibida eng katta ulushni (38%) tashkil etadi. Bu ko'rsatkich O'zbekiston iqtisodiyotining savdo va xizmatlar sohasiga nisbatan yuqori bog'liqligini aks ettiradi. Foyda solig'i 22% bilan ikkinchi o'rinni egallaydi.

2-jadval.

Soliq bazasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ⁷(2020–2023)


Ko'rsatkich	2020-yil	2022-yil	2023-yil
Soliq tushumlari (mlrd so'm)	85 420	142 300	168 750
YaIM ulushi (%)	22.4	25.1	26.8
Ro'yxatga olingan to'lovchilar (ming)	312	415	498
QQS to'lovchilari ulushi (%)	34	41	45
Norasmiy iqtisodiyot ulushi (%)	48	42	38
Soliq yuki (% YaIMga)	23.1	25.8	27.2

⁶ Muallif tadqiqotlari asosida tuzildi

⁷ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, soliq islohotlari natijasida ro'yxatga olingan soliq to'lovchilar soni 2020-yildan 2023-yilga qadar 59.6%ga oshgan (312 mingdan 498 minggacha). Bu soliq bazasining sezilarli kengayganligidan dalolat beradi. Norasmiy iqtisodiyot ulushi esa 48%dan 38%gacha kamaygan, ammo bu ko'rsatkich hali ham yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

Iqtisodiyot sektorlari bo'yicha soliq bazasini qamrab olish darajasi har xil ekanligini tadqiqot natijalarimiz tasdiqladi. 3-grafik rasmiy va norasmiy sektorlar nisbatini tarmoqlar kesimida ko'rsatadi.



3-rasm. Iqtisodiyot sektorlari bo'yicha soliq bazasi qamrovi⁸ (2023)

Yuqoridagi rasmdan ko'rinadiki, moliya sektori (90%) va sanoat (85%) eng yuqori rasmiylashtirilgan tarmoqlar hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida norasmiy sektor ulushi 65% bilan eng yuqori darajada — bu tarmoqda soliq bazasini kengaytirish uchun katta zaxira mavjudligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Olingan natijalarni xalqaro amaliyot bilan solishtirish maqsadida quyidagi 3-jadval tayyorlandi.

3-jadval.

Bir qator davlatlarda asosiy soliq stavkalarining taqqoslamasi⁹ (2023)

Davlat	QQS (%)	Foyda solig'i (%)	Daromad solig'i (%)	Soliq yuki (% YaIM)
O'zbekiston	12	15	12	27.2

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqildi

⁹ IMF Tax Policy Division ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Qozog‘iston	12	20	10	22.8
Rossiya	20	20	13	29.4
Germaniya	19	15	14-45	38.8
Janubiy Koreya	10	25	6-42	28.4

Xalqaro taqqoslov shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistondagi QQS stavkasi (12%) Qozog‘iston bilan bir xil bo‘lib, Rossiya (20%) va Germaniya (19%)dan ancha past. Foyda solig‘i stavkasi (15%) esa Qozog‘iston (20%) va Russiyadagidan (20%) past, ammo Germaniya (15%) bilan teng. Soliq yuki ko‘rsatkichi (27.2%) Qozog‘iston (22.8%)dan yuqori, lekin Germaniya (38.8%)dan sezilarli past.

Tadqiqot natijalarida QQS stavkasini 20%dan 12%ga tushirish soliq tushumlarini pasaytirmay, aksincha, kengaytirilgan baza hisobiga oshirishga imkon berishini Laffer nazariyasini qisman tasdiqlaydi. Xususan, 2022-yilda soliq tushumi real ko‘rsatkichda 2018-yilga nisbatan 38% oshdi. Bu elastiklik koeffitsienti 1.42 ga teng ekanligini ko‘rsatadi, ya’ni soliq bazasining o‘sishi stavkaning pasayishini to‘liq qopladi.

Tadqiqot norasmiy iqtisodiyotning soliq bazasiga ta’sirini miqdoriy jihatdan baholadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, agar norasmiy iqtisodiyot ulushi hozirgi 38%dan 25%ga tushirilsa, yillik soliq tushumi taxminan 12–15 trillion so‘mga ortishi mumkin. Bu ko‘rsatkich davlat byudjetining hozirgi hajmiga nisbatan taxminan 7–9%ni tashkil etadi.

Norasmiy iqtisodiyotni qisqartirishning asosiy vositalari sifatida: elektron hujjat aylanishi va onlayn kassa apparatlarini kengaytirish, bankdan tashqari operatsiyalarni monitoring qilish, soliq ma’muriyatini raqamlashtirish va soliq to‘lovchilar uchun rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish ko‘rsatiladi.

Kichik va o‘rta biznes (KOB) uchun soliq yuki tahlili ko‘rsatdiki, soddalashtirilgan soliq tizimi imkoniyatlaridan foydalanuvchi tadbirkorlar uchun real soliq yuki yirik korporatsiyalarga qaraganda nisbatan yuqori bo‘lishi mumkin. Bu holat soliq siyosatining progressivlik tamoyilini yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA (CONCLUSION)

Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda amalga oshirilgan soliq stavkalarini pasaytirish siyosatining iqtisodiy asoslanganligini va uning ijobiy natijalar berganligini isbotladi. Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

Birinchiidan, 2018–2024-yillar davomida asosiy soliq stavkalarini pasaytirish siyosati iqtisodiy faollikni oshirishga va soliq bazasini kengaytirishga samarali hissa qo‘shdi. Soliq tushumlari YaIMga nisbatan 22.4% dan 27.2% ga o‘shdi.

Ikkinchiidan, soliq bazasini kengaytirish siyosati natijasida rasmiy soliq to‘lovchilar soni deyarli 60% ga ortdi va norasmiy iqtisodiyot ulushi 10 foiz punktga qisqardi. Biroq, ayniqsa qishloq xo‘jaligi sektorida soliq bazasini qamrab olishni oshirish bo‘yicha ish hali davom ettirilishi kerak.

Uchinchiidan, O‘zbekistondagi soliq stavkalari xalqaro standartlar bilan mos keladi va mintaqaviy raqobatbardoshlikni ta‘minlaydi. Soliq yuki (27.2% YaIM) rivojlangan davlatlar o‘rtacha ko‘rsatkichidan past bo‘lib, bu investitsion jozibadorlikni saqlashga yordam beradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalar beriladi: (1) qishloq xo‘jaligi soliq ma‘muriyatini raqamlashtirish; (2) kichik biznes uchun soliqqa tortishning progressiv mexanizmlarini joriy etish; (3) norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish uchun rag‘batlantiruvchi va jazolovchi choralarni muvozanatli qo‘llash; (4) soliq tushumlarini monitoring qilish va prognozlash tizimini takomillashtirish.

Kelgusida ushbu mavzu bo‘yicha tadqiqotlar soliq siyosatining mikro-iqtisodiy oqibatlarini, xususan uy xo‘jaliklari va alohida tarmoqlar darajasida o‘rganishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2020. – 512 b.
2. Davlat Soliq Qo‘mitasi. Yillik hisobot 2023. – Toshkent: DSQ, 2024.
3. Moliya vazirligi. Byudjet ijrosi to‘g‘risida hisobot 2020–2023. – Toshkent, 2024.
4. World Bank. Doing Business Report 2023. – Washington D.C.: World Bank, 2023.
5. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: W. Strahan & T. Cadell, 1776.
6. Laffer A. The Laffer Curve: Past, Present, and Future // Heritage Foundation Backgrounder. – 2004. – №1765.
7. Bird R., Zolt E. Redistribution via Taxation: The Limited Role of the Personal Income Tax in Developing Countries // UCLA Law Review. – 2005. – Vol. 52. – P. 1627–1695.
8. IMF. Fiscal Monitor: Tackling the Tax Challenges of the Digital Economy. – Washington D.C., 2022.
9. Yusupov N.T. O‘zbekiston soliq tizimini isloh qilishning moliyaviy-iqtisodiy muammolari // Moliya. – 2021. – №3. – B. 14–22.

10. Karimova D.A. Soliq bazasini kengaytirish va norasmiy iqtisodiyotni legallashtirishning o‘zaro bog‘liqligi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2022. – №4. – B. 88–97.
11. Toshmatov B.S. Comparative Analysis of Tax Systems in Central Asian Countries // Journal of Applied Economics. – 2023. – Vol. 15(2). – P. 234–251.
12. Lukyanenko M. Налоговая политика в странах СНГ: сравнительный анализ // Вопросы экономики. – 2019. – №7. – С. 45–62.
13. Dzhaksybekov A. Tax Reform Experience in Kazakhstan: Lessons for Neighboring Economies // Central Asian Economic Review. – 2020. – Vol. 8(1). – P. 12–29.
14. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Statistika to‘plam 2024. – Toshkent: Stat agentlik, 2024.